F. A. Milkov – geografik omillar va tabiiy resurslarni baholash masalalarini ilmiy asoslagan. U yer resurslari xosiyatini baholashda iqlim, tuproq tuzilishi, gidrologik sharoitlar va inson faoliyatini inobatga olish kerakligini ta'kidlagan. Uning tadqiqotlari yaroqlilik kartogrammalarini tuzish va tuproq sifatini baholash usullarini rivojlantirishga yordam bergan[5].

V. N. Andreyev – zamonaviy kadastr baholash tizimlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. U kadastr baholash jarayonida iqtisodiy va tabiiy omillarni uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari yer kadastrini raqamlashtirish, kadastr baholash uslubiylarini

takomillashtirish va geografik axborot tizimlarini (GAT) joriy etish bo'yicha asosiy metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

N. F. Reymer – yer resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik tamoyillarini ilgari surgan. U yerning iqtisodiy bahosini aniqlashda ekologik omillar, yerning tiklanish qobiliyati va resurs tejamkorlik metodlarini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning konsepsiyasi zamonaviy kadastr baholashda ekologik baholash metodlarini rivojlantirishda qo'llanilmoqda [7].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yerlarni baholashda klassik iqtisodiy nazariyalar va zamonaviy kadastr tizimlari uyg'unlashtirilishi zarur. Ilmiy manbalar tahlili asosida baholash standartlarini takomillashtirish va yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda yerlarni baholash va soliqqa tortish tizimini tahlil qilish uchun turli ilmiy yondashuvlar va metodlar qo'llanildi. Avvalo, yerni baholashning nazariy asoslari, milliy va xalqaro baholash standartlari, shuningdek, kadastr baholash jarayoniga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, statistik usullar, korrelyatsion-regressiv tahlil va tizimli yondashuv ishlatildi. Yerlarning iqtisodiy baholashi differensial daromad, xarajatlarning qoplanishi va hosildorlik darajalari asosida baholandi. Shu bilan birga, yaroqlilik kartogrammalaridan foydalanib, yerlardan samarali foydalanish mexanizmlari tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Yer resurslarining asosiy xususiyati uning hosildorlik qobiliyati bo'lib, bu yer uchastkalari o'rtasida sifat jihatidan farqlarni keltirib chiqaradi. Hosildorlik – yerning o'simliklarni zarur oziq moddalar va namlik bilan ta'minlash qobiliyatidir.

Zamonaviy fan hosildorlikni tabiiy va iqtisodiy turlarga ajratadi. Tabiiy hosildorlik tabiat ta'siri ostida shakllanib, tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiy hosildorlik esa inson xo'jalik faoliyati natijasida vujudga keladi va yer xo'jaligining samaradorligini ifodalaydi.

Yer kadastr tizimida yerlarni baholash jarayonida hosildorlik darajasi aniqlanadi. U mutlaq va nisbiy shakllarda namoyon bo'ladi. Mutlaq hosildorlik yer maydonining birlik hajmida olinadigan mahsulot hajmi orqali, nisbiy hosildorlik esa turli sifatdagi yerlarga kiritilgan sarf-xarajatlar samaradorligi orqali baholanadi.

Tuproqlarni bonitirovka qilish va yerlarni iqtisodiy baholash ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlashning uzviy jarayoni hisoblanadi. Yerning tabiiy xususiyatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy omillari bilan bog'liq bo'lib, bonitirovka natijalari yerlarni iqtisodiy baholash uchun asos bo'ladi [15].

Yerni baholash tartibi ma'lumotlarni to'plash, hududlarni zonalashtirish, tuproqlarni sifat jihatidan baholash va iqtisodiy baholash bosqichlaridan iborat.

Yerni baholashda tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni puxta hisobga olish muhimdir. Zonalashtirish jarayoni yerlarni baholashda tabiiy-agrar hududlar, zonalar va mintaqalarga ajratishni o'z ichiga oladi. Bu yerlarning tuproq-iqlim sharoiti, issiqlik va namlik balansi, tuproq hosil bo'lish jarayoni, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi kabi omillarga asoslanadi.

Tabiiy-agrar zonalar o'z navbatida biologik va agroklimatik xususiyatlariga ko'ra mintaqalarga ajratiladi. Bunda iqlim kontinentalligi, tuproq muzlash chuqurligi, qor qoplamining quvvati, vegetatsiya davri, qurg'oqchiliklar takrorlanishi va biologik mahsuldorlik kabi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi.

Ko'p yillik daraxtzorlar, yonbag'ir yerlar va tog'li hududlarda zonalashtirish murakkabroq bo'lib, batafsil yer-kadastr tahlillari talab etiladi. Bunday sharoitlarda xo'jaliklarning maxsus baholash guruhlari shakllantiriladi, ularni ajratishda tuproq boniteti, yer nishabligi, ekspozitsiyasi, dengiz sathidan balandligi, faol haroratlar yig'indisi, daraxtlar konsentratsiyasi va iqtisodiy omillar inobatga olinadi.

Barcha omillarni tizimli tahlil qilish va baholashda ko'p o'lchovli statistik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Yer kadastr tizimida yerlarning iqtisodiy baholashi yerni ishlab chiqarish vositasi sifatidagi qiymatini aniqlaydi. U yerlarning mahsuldorligi va xo'jalik yuritish samaradorligini iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholaydi.

Iqtisodiy baholash yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan. Asosiy vazifalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sharoitlari va natijalarini baholash, jamoat mehnati samaradorligini aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy baholash obyekti sifatida yer ishlab chiqarish vositasi sifatida qaraladi va tuproqning sifat xususiyatlari, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq holda baholanadi.

Yerlarning iqtisodiy baholash materiallari yer egalari va ijarachilarning xo'jalik faoliyatini baholash, yer bozorini rivojlantirish, yer solig'i va ijara to'lovlarini aniqlash hamda davlat va xususiy mulkchilikdagi yer fondlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yerlarning iqtisodiy baholashi uchun baholash ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Ilgari ta'kidlanganidek, yerlarning iqtisodiy baholash predmeti iqtisodiy hosildorlikning aniq shakllari – mutlaq va nisbiy hosildorlikdir. Demak, yerlarni baholashdagi vazifalarni zarur darajada obyektivlik va ishonchlilik bilan hal qilish uchun mutlaq va nisbiy hosildorlik darajasini aniqlab, unga sonli baho berish lozim.

Yerlarni kadastr baholashdagi muammolarni hal qilish va xorijiy tajribadan foydalanish orqali O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va yer solig'ini adolatli undirish imkonini beradi [16].

Bu yerlarni baholash uchun maxsus ko'rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi, ular tabiiy va pul ko'rinishida ifodalanadi. Yerlarni zamonaviy iqtisodiy baholash yerni baholash ko'rsatkichlari tizimi orqali amalga oshiriladi, ularning har biri aniq mazmun va maqsadga ega.

$$XQK = \frac{YMQ}{X} \quad (1)$$

bu yerda:

XQK – xarajatlarning qoplanishi koeffitsiyenti.

YMQ – yerlarning ekin turlari bo'yicha mahsuldorligi, kadastr narxlarida dehqonchilik yalpi mahsuloti qiymati bo'yicha hisoblab chiqilgan, so'm/ga;

X – ishlab chiqarish xarajatlari so'm/ga.

Differensial daromad quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DD = YMQ - X - SD \quad (2)$$

bu yerda:

DD – differensial daromad nisbatan yaxshi yerlarda qo'shimcha mahsulot qiymatini ifodalovchi sof daromadning bir qismi, so'm/ga.

SD – jami ishlab chiqarish fondlari qiymatining 15% ni tashkil etuvchi zarur sof daromad, so'm/ga.

Yerlarni baholashda asosiy ko'rsatkichlar yerning unumdorlik qobiliyatini tavsiflaydi. Hosildorlik va mahsuldorlik yerning sifati va dehqonchilik intensivligiga bog'liq. Xarajatlarning qoplanishi ishlab chiqarish samaradorligini aks ettiradi.

Differensial daromad yer sifati va ishlab chiqarish intensivligini hisobga oladi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi. Xarajatlarning qoplanishi yalpi mahsulot va differensial daromadni bog'laydi. Differensial daromadni hisoblashda 1,35 koeffitsiyent mahsulot narxining kadastr bahosidagi qoplanish chegarasi sifatida qabul qilinadi. Bunda differensial daromadni hisoblash formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$DD = YMQ \times d \quad (3)$$

bu yerda:

d – yalpi mahsulotdagi differensial daromadning solishtirma salmog'i, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$d = \frac{XQK - 1,35}{XQK} \quad (4)$$

Differensial daromadni hisoblashning ushbu usuli uslubiy ma'noda jami ishlab chiqarish fondlari qiymatining 15% miqdorida zarur sof daromadni aniqlash usuliga tengdir.

Yerlarni baholash haydaladigan yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlar uchun amalga oshiriladi. Baholash xo'jalik yuritish va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, qishloq xo'jaligi yerlariga qo'llaniladi.

Irrigatsiya va qurg'oqchilik sharoitlariga qarab, baholash sug'oriladigan, qurg'oqchil va melioratsiya qilingan yerlar bo'yicha alohida o'tkaziladi. Agar melioratsiya qilingan yerlar hajmi kichik bo'lsa, ular alohida hisobga olinmasligi mumkin.

Baholash uchun majburiy ekinlar ro'yxatiga g'alla, dukkakli don ekinlari, makkajo'xori va texnik ekinlar kiritiladi. Asosiy ma'lumotlar yer kadastr, agroiqlimiy tahlillar, tuproq tadqiqotlari va qishloq xo'jaligi hisobotlari asosida shakllantiriladi. Barcha statistik materiallar kamida 5-yil davomida yig'ilib, tahlil qilinadi.

Yerni baholashning asosiy qismi bazaviy baholash ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat bo'lib, ular tuproqning agroproduktiv guruhlar bo'yicha hisoblanadi. Baholash ishlarida tanlanma statistik tadqiqot usuli qo'llanib, ma'lumotlar tasodifiy emas, balki xo'jalik ma'lumotlariga asoslangan holda shakllantiriladi.

Tanlov usuli hosildorlik va xarajatlarning to'g'ridan-to'g'ri hisobi, tuproq qoplamasi haqidagi ma'lumotlar va korrelyatsion-regressiv tahlil asosida olib boriladi. Agar baholanayotgan tuproqlar haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bir omilli tipik tanlovlar usuli qo'llaniladi. Katta sonlar qonuniyatiga asoslangan holda, agar 10 tadan ortiq xo'jaliklar bir tuproq guruhi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lsa, ularning o'rtacha qiymatlari reprezentativ baholash parametrlari sifatida qabul qilinadi.

Tarkibiy tanlanma – bu qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida tuproq qoplamining tuzilishi turlicha bo'lgan, ixtisoslashuvi va dehqonchilikning intensivlik darajasi nisbatan bir xil bo'lgan baholangan hudud xo'jaliklari yig'indisidir.

Tuproq guruhlar bo'yicha baholash ko'rsatkichlari ko'p o'lchovli regressiyaning quyidagi chiziqli tenglamasi asosida aniqlanadi:



$$y = a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_mx_m \quad (5)$$

bu yerda:

$y$  – tuproq guruhlari bo'yicha tabaqalashtiriladigan eng katta o'zgaruvchi.

$x_1, x_2, \dots, x_m$  – haydaladigan yoki boshqa yer maydonidagi baholanuvchi tuproq guruhlarning solishtirma og'irligi;

$a_1, a_2, \dots, a_m$  – tuproq guruhlari bo'yicha baholash ko'rsatkichlarining izlanayotgan qiymatlari.

Ushbu model bo'yicha butun ekin maydonida almashlab ekishda yetishtiriladigan asosiy ekinlar bo'yicha hosildorlik (mahsuldorlik) va xarajatlarni qoplashning baholash ko'rsatkichlari, shuningdek, ekin turlari bo'yicha yalpi mahsulot va xarajatlarni qoplash ko'rsatkichlari (odatda eng keng tarqalgan tuproq guruhlari uchun) hisoblab chiqilishi mumkin.

Ko'p omilli chiziqli regressiya tenglamalari sistemasi xo'jaliklar tuproq qoplamida tuproq guruhlari soni katta va har birining solishtirma og'irligi kichik bo'lganda masala yechimlarining qoniqarli natijalarini olishni ta'minlamaydi.

Bunday hollarda kichik strukturali tanlanmalar qo'llaniladi, ularning shakllanishi tanlanmadagi agregatlangan tuproq guruhlarning ketma-ket qatlamlarga ajralishini bosqichma-bosqich tanlash yo'li bilan ta'minlanadi.

Lalmi shudgor asosida bazis hosildorlikni aniqlash sug'oriladigan yerlarni baholash uchun asos bo'ladi. Melioratsiya natijasida yer sifati va foydalanish usullari o'zgaradi, irrigatsiya inshootlari va quritish tizimlari katta sarmoya talab qiladi. Shuning uchun, melioratsiya qilingan yerlarda baholash uchun qo'shimcha talablar qo'yiladi.

Sug'oriladigan yerlarni baholashda quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

- sug'orish muddati (eski, yangi, o'zlashtirilgan yerlar);
- suv bilan ta'minlanganlik (muntazam va shartli sug'oriladigan yerlar);
- kollektor-zovur tarmog'ining mavjudligi [15].

Melioratsiya qilingan yerlarni baholashda kapital qo'yilmalar, sug'orish xarajatlari va qo'shimcha ishlov berish xarajatlari aniq hisoblanishi zarur.

Tabiiy yem-xashak yerlarini baholash mehnat xarajatlari, texnik tadbirlar, quduq va suv inshootlari amortizatsiyasi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va yer egaligining turli shakllarini joriy etish sharoitida yer maydonlarini baholash ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash va xo'jalik faoliyatini obyektiv baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Dehqonchilik natijalari yerning fizik maydoni asosida baholanganda, turli yer uchastkalarining unumdorlik darajasi hisobga olinmaydi. Obyektiv tahlil qilish uchun natijalar yer unumdorligi asosida baholanishi kerak.

Qishloq xo'jaligi korxonalari va tumanlarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda tabiiy va iqtisodiy unumdorlik ko'rsatkichlari kompleks ravishda qo'llanilishi talab etiladi.

Shunday qilib, tuproqning tabiiy unumdorligi bo'yicha balini bilgan holda, yerning nisbiy qiymat koeffitsiyentini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$K_{qq} = \frac{B_b}{B_p} \quad (6)$$

bu yerda:

$K_{qq}$  – xo'jalik, tuman, viloyat yerlaridan foydalanishning qiyosiy qiymati koeffitsiyenti;

$B_b$  – xo‘jalik, tuman, viloyatning tabiiy xossalari (tuproq bonitirovkasi bali);

$B_b'$  – xo‘jalik, tuman tabiiy xossalari bo‘yicha eng yuqori ball.

Iqtisodiy, tuproq va iqlim omillarining funksiyasi sifatida qaraladigan hosildorlik bo‘yicha yerlarni baholashning me‘yoriy (bazaviy) ko‘rsatkichi asosida agrosanoat salohiyatini o‘zlashtirish koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_{am} = \frac{H_h}{H_n} \quad (7)$$

bu yerda:

$K_{am}$  – agrosanoat majmuasini o‘zlashtirish koeffitsiyenti;

$H_h$  – ekinlarning haqiqiy hosildorligi, 1 ga nisbatan ozuqa birligi sentnerda;

$H_n$  – ekinlarning normal hosildorligi, 1 ga nisbatan ozuqa birligi sentnerda.

Yerlarning mahsuldorligi bo‘yicha baholash ko‘rsatkichini hisobga olish, shuningdek, o‘simlikchilikda fond qaytimining yanada obyektiv qiyosiy tahlilini o‘tkazishga yordam beradi.

Tuman xo‘jaliklarida fond qaytimining taqqoslanadigan darajasi yerlarning unumdorlik qobiliyatidagi farqlarni hisobga olgan holda quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$F_q = \frac{YM_{jn}}{F_t} \div B_b \quad (8)$$

bu yerda:

$F_q$  – yerni baholashning 1 balli uchun fond qaytimi, so‘m;

$YM_{jn}$  – 1 ga qishloq xo‘jaligi yerlari uchun joriy narxlarda yalpi mahsulotning amaldagi qiymati, so‘m;

$F_t$  – fond bilan ta‘minlanganlik, so‘m/ga;

$B_b$  – mahsuldorlik bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlarini umumiy baholash bali.

Xarajatlar darajasi va muayyan mahsulot turining tannarxini tahlil qilishda alohida qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha xarajatlarni qoplash bo‘yicha yerni baholash ko‘rsatkichidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko‘rsatkich ilmiy asoslangan me‘yor sifatida har xil sifatli yerlarda 1 so‘m xarajat hisobida har bir gektardan muayyan mahsulot turining bazis qiymatini belgilaydi.

Differensial daromad qishloq xo‘jaligida foyda darajasini o‘lchash imkonini beradi va yerlardan samarali foydalanishni ta‘minlashda muhim baholovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Yer tuzish xo‘jalik hududini tashkil etishda tuproq unumdorligini oshirish va texnikalardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Yerlarni baholash ma‘lumotlari xo‘jalik yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish, ekin maydonlarini tashkil etish, almashlab ekish turlari va joylashuvini aniqlash hamda loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlatiladi.

Yaroqlilik kartogrammasi yerlarning sifati va hosildorligini aniq ko‘rsatadi. Yerlarni besh guruhga ajratish optimal hisoblanadi:

1. Yuqori hosildor va cheklovsiz yaroqli yerlar
2. Nisbatan yomon, lekin qishloq xo‘jaligi uchun foydali
3. Cheklangan darajada yaroqli
4. Melioratsiyadan keyin foydalanish mumkin bo‘lgan yerlar
5. Yaroqsiz va melioratsiya qilish maqsadga muvofiq emas

Kartogrammalar asosida yetakchi ekinlar uchun yaroqli maydonlar aniqlanib, xo‘jalik va uning bo‘linmalari bo‘yicha ixtisoslashuv belgilanadi.

Ehtimoliy ekin maydonlari birinchi va ikkinchi guruh maydonlariga qarab quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$M_{uk} = \frac{K_k \times M_y \times F_e}{100} \quad (9)$$

bu yerda:

$M_{uk}$  – ekin maydoni uchun umumiy ko'rsatkich.

$K_k$  – yaroqli maydonning almashlab ekishga kiritish koeffitsiyenti (o'rmon zonasi uchun  $K_k = 0,90-0,93$ , dasht zonasi uchun  $0,95-0,98$ , o'rmon–dasht zonasi uchun  $0,93-0,95$ )

$M_y$  – j-ekinni yetishtirish uchun yaroqli ekin maydoni.

$F_e$  – zonal almashlab ekishda j-ekinni ekish foizi.

Donli ekinlar ekiladigan maydonlar birinchi, ikkinchi va uchinchi yaroqlilik guruhlariga bo'yicha aniqlanadi. Ehtimoliy ekin maydonlari umumiy ekin maydoniga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi. Boshqa ekinlar maydoni esa yetakchi ekinlar uchun ajratilgan maydon va umumiy maydon o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ekin maydoni va rejalashtirilgan hosildorlik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Yetkazib berish hajmini oshirish resurslar va yerlarni yaxshilash tadbirlari hisobiga amalga oshiriladi.

Yerlardan samarali foydalanish uchun:

1. Tuproq xaritasi va yaroqlilik kartogrammasidan foydalanib, birinchi navbatda shudgorlashga yaroqli yerlar aniqlanadi.

2. Melioratsiyadan so'ng o'zlashtirish mumkin bo'lgan maydonlar tanlanadi.

3. Almashlab ekish massivlari tabiatni muhofaza qilish va tuproqni saqlash samaradorligi hisobga olingan holda joylashtiriladi.

$X_{qm}$  – xarajatlarning qoplanish muddati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$X_{qm} = \frac{K}{SD_2 - SD_1} + D \quad (10)$$

bu yerda:

$K$  – yer uchastkasini melioratsiya qilish va o'zlashtirish ishlari uchun kapital qo'yilmalar summasi;

$SD_2$  – yaxshilanishdan keyin uchastkadan foydalanishdan olingan sof daromad;

$SD_1$  – yaxshilash bo'yicha sof daromad;

$D$  – meliorativ davr yoki uchastkani loyihalashtirilayotgan foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish davri.

Transformatsiyalanayotgan uchastka uchun  $SD_2$  va  $SD_1$  qiymatlari ularni baholash ko'rsatkichlari va xo'jalik yoki umuman tumanning kamida uch yil uchun yillik hisobotlarining o'rtacha ma'lumotlaridan foydalangan holda aniqlanadi. Melioratsiya davrining davomiyligi ( $D$ ) melioratsiya turiga qarab bir yildan 4 yilgacha belgilanadi.

Yaroqlilik kartogrammasi asosida kam yaroqli yoki yaroqsiz haydaladigan yer uchastkalari aniqlanadi. Eng past ikki guruhga mansub yerlar almashlab ekish, ko'p yillik o'tlar, doimiy shudgorlash yoki xo'jalik qurilishlari uchun ajratiladi.

Ekin maydonlari va almashlab ekish turlari yer sifatiga muvofiq shakllantiriladi. Bir xil almashlab ekish tizimida talabchanligi yuqori va past ekinlar aralashtirilmaydi.

Almashlab ekish massivlari turli tuproq sifatlariga ega bo'lsa, har bir maydon ikkita qo'shni guruhni qamrab oladi. Tuproq unumdorligi farqi katta bo'lgan hollarda, yomon tuproqli

maydonlar kattaroq, yaxshi tuproqli maydonlar esa kichikroq bo'lishi mumkin, bu ekin mahsuldorligining barqarorligini ta'minlaydi.

Bu holda  $D_m$  –dala maydoni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$D_m = \frac{D_{o'rt} \times B_b}{B_l} \quad (11)$$

bu yerda:

$D_{o'rt}$  – almashlab ekish dalaning o'rtacha maydoni

$B_b$  – tegishincha almashlab ekish maydonini baholash bali

$B_l$  – yetakchi intensiv ekin hosildorligi bo'yicha loyihalashtirilayotgan dalaning bali.

Dalalarni loyihalash variantlari omillar majmui, jumladan, tuproqning ekin ekishga yaroqliligi va haydalgan yerni xususiy baholash bo'yicha taqqoslanadi.

Hududni ichki xo'jalik tashkil etishning iqtisodiy samarasi obyektiv tashkiliy–ishlab chiqarish omili sifatida loyiha tomonidan taklif etilayotgan qishloq xo'jaligi yerlaridan, asosan, shudgorlardan yanada maqsadga muvofiq foydalanishdan, tuproq sifati va qishloq xo'jaligi yerlari maydonini oshiruvchi tadbirlarni amalga oshirishdan, boshqa yerlarni qishloq xo'jaligi oborotiga kiritishdan olinadigan sof daromadning o'sishini tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar.** Yerlarni baholash qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Yerlarning iqtisodiy baholashi tuproq unumdorligi, ishlab chiqarish xarajatlari va differensial daromad asosida amalga oshiriladi. Yaroqlilik kartogrammalaridan foydalanish yerlarning sifatini baholash, ekin maydonlarini optimal joylashtirish va almashlab ekish turlarini tanlash imkonini beradi.

Melioratsiya qilingan yerlarning baholashida sug'orish xarajatlari, kapital qo'yilmalar va yerning mahsuldorligi e'tiborga olinishi zarur. Tuproq unumdorligi bo'yicha yaroqlilik guruhlarini ajratish qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rejalashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagilar taklif qilinadi:

- baholashda melioratsiya qilingan va tabiiy yerlar uchun alohida uslublar qo'llanishi lozim;
- korrelyatsion va regressiv tahlillar asosida baholash modellarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;
- yetakchi ekinlarni joylashtirish va almashlab ekish tizimini aniq belgilash uchun yaroqlilik kartogrammalarini yaratish majburiy bo'lishi kerak;
- birinchi va ikkinchi toifaga mansub yerlar intensiv yetishtirish uchun, past sifatli yerlar esa melioratsiya va chorvachilik uchun ajratilishi lozim;
- sug'orish va drenaj tizimlarini takomillashtirish orqali melioratsiya xarajatlarini pasaytirish;
- sug'oriladigan va lalmi yerlar uchun farqli baholash standartlarini ishlab chiqish;
- geografik axborot tizimlari (GAT) asosida yerlarni baholash mexanizmlarini shakllantirish;
- dronlar orqali yer unumdorligini kuzatish va aniq baholash imkoniyatlarini kengaytirish;
- yerlarning iqtisodiy baholashi natijalari yer solig'i, ijara to'lovlari va yer bozori mexanizmlariga asos qilib olinishi lozim;

- melioratsiya qilingan yerlarni baholash mezonlarini aniqlash va qonunchilikda ularni belgilovchi normalarni kiritish.

Bu takliflar yerlarning iqtisodiy baholashini aniq va asosli amalga oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. Ricardo, D. (1817). On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray.
3. George, H. (1879). Progress and Poverty. New York: Appleton.
4. Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Milkov, F. A. (1981). Land Resources and Their Evaluation. Moscow: Nauka.
6. Andreyev, V. N. (2004). Modern Cadastral Valuation Systems. St. Petersburg: Geodesy and Cartography Institute.
7. Reimers, N. F. (1990). Natural Resource Use and Environmental Management. Moscow: Mysl.
8. Mints, A. A. (2007). Economic Assessment of Reclaimed Lands. Moscow: Publishing House of the Russian Academy of Sciences.
9. Holmurodov, R. (2015). Land Cadastre and Taxation System in Uzbekistan. Tashkent: University of Economics Press.
10. Karimov, B. (2020). Economic Valuation of Reclaimed Lands in Uzbekistan. Tashkent: Institute of Agricultural Economics.
11. To'lov, U.T. (2025). Ko'chmas mulkni kadastr baholash tuzilmasi. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi, 5(2), 197-209.
12. To'lov, U.T. (2025). Ko'chmas mulkni kadastr baholash xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(2), 600-609.
13. To'lov, U.T. (2025). Ko'chmas mulkni soliqqa tortishda ommaviy baholash. Muhandislik va iqtisodiyot, 3(1), 540-552.
14. Tulakov, U. (2025). Ways to Improve The Methodological Foundations of Mass Appraisal for Real Estate Taxation. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(1), 135-145.
15. Чулкова Г.В., Основы кадастровой оценки земель и недвижимости. Учебное пособие. Смоленск, 2019. С-100.
16. Тўлаков, У.Т. (2021). Ўзбекистонда ер солиғи ривожланиши истиқболлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 1(3), 355-366.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).